

Toshkentdagi birinchi meva-sabzavot yarmarkasi



Poytaxtimizda 8?10-noyabr kunlari birinchi Xalqaro meva-sabzavot yarmarkasi bo'lib o'tmoqda.

8-noyabr kuni Toshkentdagi "O'zekspomarkaz"da birinchi Xalqaro meva-sabzavot yarmarkasi boshlandi. Unda 31 davlat vakillari mamlakatning meva-sabzavot mahsulotlari sohasidagi salohiyatini o'rghanish maqsadida ishtirok etmoqda. Ishtirokchilar qatorida qayta ishslash va savdo kompaniyalari, savdo tashkilotlari, savdo-sanoat palatalari, qishloq xo'jaligi yo'nalishidagi vazirlik va idoralar, logistika kompaniyalari vakillari ham yarmarka ishi bilan tanishmoqda.

"Yarmarka oldida turgan eng muhim vazifa xorijlik sherkatlarni O'zbekiston agrosanoat majmuasi imkoniyatlari bilan tanishtirish hamda chet eldag'i qayta ishlovchi korxonalar va importchilar bilan mustahkam hamkorlik aloqalarini o'rnatishdan iborat", — dedi forum ochilishida bosh vazir o'rribosari Ulug'bek Roziqulov.



["?????.uz"](#)

